O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUNCHILIGIDA AYOLLARNING IQTISODIY HUQUQ VA ERKINLIKLARI

Dinora Eshboyeva,
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik
akademiyasi magistranti
dinoraeshboyeva4@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida ayollarning iqtisodiy huquq va erkinliklarini ta’minlash masalalari tahlil etilgan. Xususan, Konstitutsiya, mehnat, tadbirkorlik va ijtimoiy himoya sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarda ayollarning iqtisodiy faoliyatda teng ishtirok etishiga oid huquqiy kafolatlar yoritib berilgan. Shuningdek, ayollarning mehnat qilish, tadbirkorlik bilan shug‘ullanish, mulkka egalik qilish, bandlik va moliyaviy resurslardan foydalanish huquqlarini mustahkamlovchi mexanizmlar o‘rganilgan. Tadqiqotda gender tengligini ta’minlashga qaratilgan davlat siyosati, mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etish yo‘llari tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *ayollar, iqtisodiy huquq, erkinliklar, gender tenglik, kodeks, qonun, modda, tadbirkorlik, mulkka egalik qilish, mehnat erkinligi.*

ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ПРАВА И СВОБОДЫ ЖЕНЩИН В ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Аннотация: *В данной статье проанализированы вопросы обеспечения экономических прав и свобод женщин в законодательстве Республики Узбекистан. В частности, раскрыты правовые гарантии равного участия женщин в экономической деятельности, закреплённые в Конституции Республики Узбекистан, а также в нормативно-правовых актах в сфере труда, предпринимательства и социальной*

защиты. Кроме того, изучены механизмы, обеспечивающие права женщин на труд, осуществление предпринимательской деятельности, владение имуществом, занятость и доступ к финансовым ресурсам. В ходе исследования проанализирована государственная политика, направленная на обеспечение гендерного равенства, а также существующие проблемы и пути их устранения.

Ключевые слова: *женщины, экономические права, свободы, гендерное равенство, кодекс, закон, статья, предпринимательство, право собственности, свобода труда.*

ECONOMIC RIGHTS AND FREEDOMS OF WOMEN IN THE LEGISLATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Abstract: *This article analyzes the issues of ensuring women's economic rights and freedoms within the legislation of the Republic of Uzbekistan. In particular, the legal guarantees of women's equal participation in economic activity enshrined in the Constitution of the Republic of Uzbekistan, as well as in normative legal acts in the fields of labor, entrepreneurship, and social protection, are examined. Furthermore, the mechanisms aimed at strengthening women's rights to work, engage in entrepreneurial activity, own property, employment, and access financial resources are explored. The study also analyzes state policies aimed at ensuring gender equality, existing challenges, and ways to address them.*

Keywords: *women, economic rights, freedoms, gender equality, code, law, article, entrepreneurship, property ownership, freedom of labor.*

KIRISH

Bugungi globallashuv va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot sharoitida ayollarning iqtisodiy huquq va erkinliklarini ta'minlash har bir demokratik davlat uchun muhim ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Ayollarning

iqtisodiy faolligi jamiyat barqarorligi, aholi farovonligi va mamlakatning barqaror rivojlanishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Shu bois, ayollarga teng iqtisodiy imkoniyatlar yaratish, ularning mehnat qilish, tadbirkorlik bilan shug‘ullanish, mulkka egalik qilish hamda moliyaviy resurslardan foydalanish huquqlarini kafolatlash davlat siyosatining ajralmas qismiga aylanmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida, ayniqsa so‘nggi davrda, ayollarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning jamiyat va iqtisodiyotdagi rolini oshirishga qaratilgan keng ko‘lamli huquqiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Konstitutsiya, qonunlar hamda normativ-huquqiy hujjatlarda ayollar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar prinsipi mustahkamlab qo‘yilgan. Ayollarning mehnat huquqlari, tadbirkorlik faoliyatida ishtiroki, bandlik masalalari va ijtimoiy himoyasi qonunchilik darajasida kafolatlanmoqda.

Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida ayollarning iqtisodiy huquq va erkinliklarini tartibga soluvchi huquqiy normalar, ularning mazmun-mohiyati hamda amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, mavjud huquqiy mexanizmlarning samaradorligi va ularni yanada takomillashtirish masalalariga alohida e’tibor qaratiladi.

ASOSIY QISM

Ayollarning iqtisodiy huquq va erkinliklari inson huquqlarining ajralmas qismi bo‘lib, ularning iqtisodiy munosabatlarda teng va erkin ishtirok etishini ta’minlashga qaratilgan huquqiy imkoniyatlar majmuasini anglatadi. Ushbu huquqlar ayollarning mehnat qilish, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish, mulkka egalik qilish, daromad olish va iqtisodiy resurslardan foydalanish huquqlarini o‘z ichiga oladi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson huquq va erkinliklari oliy qadriyat sifatida e’tirof etilgan bo‘lib, unda ayollar va erkaklar teng huquqliligi prinsipi mustahkamlangan. Xususan, Konstitutsiyaning 58-moddasiga muvofiq: “Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar. Davlat xotin-

qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni ta’minlaydi[1]”. Ushbu norma ayollarning iqtisodiy sohadagi huquqlarini ta’minlash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Ayollarning iqtisodiy huquqlari nafaqat tenglik prinsipiga, balki ijtimoiy adolat va diskriminatsiyaga yo‘l qo‘ymaslik tamoyillariga ham asoslanadi. Bu esa davlat tomonidan ayollarni iqtisodiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Konstitutsiyaning 42-moddasida har kim mehnat qilish, erkin kasb tanlash va adolatli mehnat sharoitlariga ega bo‘lish huquqiga egaligi mustahkamlab qo‘yilgan[2]. Ushbu norma ayollarning mehnat bozoridagi ishtirokini huquqiy jihatdan kafolatlaydi.

Shuningdek, Konstitutsiyaning 78-moddasida davlat oilani, onalik, otalik va bolalikni muhofaza qilishi belgilangan bo‘lib, bu ayollarning iqtisodiy huquqlarini amalga oshirishida ijtimoiy himoya mexanizmlarini yaratishga xizmat qiladi[3]. Xususan, mehnat munosabatlarida homilador ayollar va voyaga yetmagan farzandi bor ayollar uchun qo‘shimcha kafolatlar nazarda tutilgan.

Konstitutsiyaviy normalar ayollarning iqtisodiy huquqlarini ta’minlashda asosiy huquqiy poydevor bo‘lib, boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning mazmunini belgilab beradi.

Ayollarning iqtisodiy huquqlarini ta’minlashda mehnat huquqi alohida ahamiyatga ega. O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi ayollarning mehnat qilish huquqlarini tartibga soluvchi asosiy normativ-huquqiy hujjat hisoblanadi. Mazkur kodeksda mehnat sohasida kamsitishga yo‘l qo‘yilmasligi qat’iy belgilangan. Xususan, kodeksning 4-moddasida shunday deyiladi: “Har

[1] O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Qarang: https://lex.uz/docs/-6445145
[2] O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Qarang: https://lex.uz/docs/-6445145
[3] O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Qarang: https://lex.uz/docs/-6445145

kim mehnat huquqlarini amalga oshirish va himoya qilishda teng imkoniyatlarga ega. Mehnat va mashg‘ulotlar sohasida kamsitish taqiqlanadi[4]”.

Mehnat kodeksiga muvofiq, ishga qabul qilishda, mehnat sharoitlarini belgilashda va ish haqi to‘lashda ayollarga nisbatan jinsiga ko‘ra cheklovlar o‘rnatish taqiqlanadi. Shu bilan birga, ayollar uchun maxsus bo‘lim ham ajratilgan bo‘lib, “Ayollarning va oilaviy vazifalarni bajarish bilan mashg‘ul shaxslarning mehnatini huquqiy jihatdan tartibga solishning o‘ziga xos xususiyatlari” nomi bilan ataladi. Unda ayollar uchun homiladorlik va tug‘ish ta’tili, bolani parvarishlash ta’tili kabi ijtimoiy kafolatlar nazarda tutilgan.

Davlat tomonidan ayollarning bandligini ta’minlash maqsadida maxsus dasturlar amalga oshirilmoqda. Xususan, kam ta’minlangan va ishsiz ayollarni kasbga o‘qitish, ularni ish bilan ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar joriy etilgan. Bu esa ayollarning iqtisodiy mustaqilligini oshirishga xizmat qiladi.

Ayollarning iqtisodiy huquqlari tarkibida tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanish huquqi muhim o‘rin tutadi. O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 25-maydagi “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq, har bir shaxs, jumladan ayollar ham, tadbirkorlik faoliyatini erkin amalga oshirish huquqiga ega.

So‘nggi yillarda ayollar tadbirkorligini rivojlantirishga qaratilgan bir qator Prezident farmon va qarorlari qabul qilindi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 7-martdagi “Xotin-qizlarning tadbirkorligini yo‘lga qo‘yish va rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-122-sonli qarori ham ayollarning iqtisodiy erkinlari kafolatidan darak beradi. Qarorning ijrosi yuzasidan ko‘plab xotin-qizlarga davlat tomonidan o‘z tadbirkorlik faoliyatlarini yuritish uchun katta mablag‘lar ajratib berildi. Ko’plab hududlarda moliyaviy savodxonlik uchun bepul o‘quv seminarlari tashkillashtirilib, ayollarning bu boradagi

[4] O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. Qarang: https://lex.uz/ru/docs/-6257288#-6266408

bilimlari oshirildi. Respublika bo‘ylab 100 ga yaqin kooperatsion loyiha amalga oshirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-martdagi “Oila va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-103-sonli qarori ham ayollarga ko‘rsatilayotgan e’tibordan darak beradi. Ushbu qarorda qarorning maqsadi sifatida quyidagilar keltiriladi:

2025-yilda xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlashning asosiy maqsadli ko‘rsatkichlari etib quyidagilar belgilansin:

(a) 2 million nafar xotin-qizlarning bandligini ta’minlash;

(b) 250 ming nafar xotin-qizlarni kasb-hunar va tadbirkorlikka o‘qitish;

(v) 250 ming nafar xotin-qizlarni oliy ta’lim bilan qamrab olish;

(g) 50 ming nafar ehtiyojmand xotin-qizlarni sanatoriylarda sog‘lomlashtirish hamda ularda tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha motivatsion seminarlar tashkil etish[5].

Shuningdek, Fuqarolik kodeksida ayollarning mulkka egalik qilish, uni tasarruf etish va undan foydalanish huquqlari erkaklar bilan teng asosda kafolatlangan. Bu esa ayollarning iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. Kodeksda quyidagi asosiy huquqlar aks etgan:

a) mulk huquqi asosida mol-mulkka ega bo‘lishlari;

b) mol-mulkni meros qilib olishlari va vasiyat qilib qoldirishlari;

c) bankda jamg‘armalarga ega bo‘lishlari;

d) tadbirkorlik, dehqon (fermer) xo‘jaligi bilan hamda qonunda taqiqlab qo‘yilmagan boshqa faoliyat bilan shug‘ullanishlari;

e) yollanma mehnatdan foydalanishlari;

f) yuridik shaxslar tashkil etishlari; bitimlar tuzishlari va majburiyatlarda ishtirok etishlari;

[5] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 14.03.2025 yildagi PQ-103-son. Qarang: https://lex.uz/docs/-7433397

g) yetkazilgan zararning to‘lanishini talab qilishlari;

h) mashg‘ulot turini va yashash joyini tanlashlari;

i) fan, adabiyot va san’at asarlarining, ixtironing, qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa intellektual faoliyat natijalarining muallifi huquqiga ega bo‘lish[6].

Nikohdan ajralish jarayoni ayollar uchun nafaqat ijtimoiy-psixologik, balki iqtisodiy jihatdan ham muhim huquqiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Shu sababli O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida ajrashganda ayollarning iqtisodiy huquqlarini himoya qilishga qaratilgan alohida normalar belgilangan. Ushbu huquqlar asosan mulkiy munosabatlar, aliment ta’minoti, turar joydan foydalanish hamda mehnat va ijtimoiy ta’minot bilan bog‘liq kafolatlarni o‘z ichiga oladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksiga muvofiq, nikoh davomida orttirilgan mol-mulk er-xotinning umumiy mulki hisoblanadi[7]. Ajrashish vaqtida ushbu mulk teng ulushlarda bo‘linishi asosiy qoida sifatida belgilangan. Bu norma ayollarning iqtisodiy manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiladi, chunki ko‘p hollarda ayollar oilaviy majburiyatlar sababli rasmiy daromad topish imkoniyatidan cheklangan bo‘lishi mumkin.

Shu bilan birga, sud ayrim holatlarda voyaga yetmagan bolalarning manfaatlarini yoki er-xotinning birining e’tiborga loyiq manfaatlarini hisobga olgan holda mulk ulushini teng bo‘lmagan tarzda belgilashi mumkin. Amaliyotda bu norma, ayniqsa, bolalar ayol tarbiyasida qolgan hollarda ayol foydasiga qo‘llaniladi.

Ajrashganda ayollarning muhim iqtisodiy huquqlaridan biri — aliment olish huquqidir. Oila kodeksiga binoan, voyaga yetmagan bolalar uchun aliment ota tomonidan to‘lanadi. Bundan tashqari, homilador ayol yoki uch yoshga to‘lmagan bolani parvarishlayotgan ayol sobiq eridan moddiy ta’minot

[6] O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. Qarang: https://lex.uz/mact/-111189
[7] O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. Qarang: https://lex.uz/mact/-104720

(aliment) talab qilish huquqiga ega. Bu norma ayollarning ajrashgandan keyingi iqtisodiy barqarorligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

Qonunchilikda mehnatga layoqatsiz va moddiy yordamga muhtoj bo‘lgan sobiq xotinlarning ham aliment olish huquqi belgilangan. Xususan, nikoh davomida yoki nikoh bekor qilinganidan keyin qisqa muddat ichida mehnatga layoqatsiz bo‘lib qolgan ayol sobiq turmush o‘rtog‘idan moddiy ta’minot talab qilish huquqiga ega. Ushbu huquq ayollarning iqtisodiy-ijtimoiy himoyasini kuchaytirishga qaratilgan.

XULOSA

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, ayollarning iqtisodiy huquq va erkinliklarini ta’minlash masalasi davlat siyosatining muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida shakllangan. Konstitutsiya, sohaviy kodekslar hamda maxsus qonunlarda ayollar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar prinsipi mustahkamlangan bo‘lib, ayollarning mehnat qilish, tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanish, mulkka egalik qilish, iqtisodiy resurslardan foydalanish hamda ijtimoiy himoya olish huquqlari huquqiy jihatdan kafolatlangan.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, mehnat va oilaviy munosabatlarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar ayollarning iqtisodiy manfaatlarini himoya qilishga alohida e’tibor qaratadi. Xususan, mehnat sohasida kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik, ayollar bandligini ta’minlash, tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash hamda ajrashish holatlarida ayollarning mulkiy va aliment bilan bog‘liq huquqlarini kafolatlash qonunchilikda aniq normalar orqali mustahkamlangan.

Shu bilan birga, amaldagi qonunchilikning mavjudligi ayollarning iqtisodiy huquqlari to‘liq va samarali amalga oshirilayotganini anglatmaydi. Ayrim hududlarda huquqni qo‘llash amaliyotidagi kamchiliklar, ayollarning huquqiy xabardorligi yetarli emasligi hamda ijtimoiy stereotiplar ularning iqtisodiy faolligini cheklab kelmoqda. Bu holat qonunchilikni yanada

takomillashtirish, huquqiy mexanizmlarning ijrosini kuchaytirish hamda ayollar uchun iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish zarurligini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasida ayollarning iqtisodiy huquq va erkinliklarini ta’minlash bo‘yicha mustahkam huquqiy asos yaratilgan bo‘lib, ushbu sohadagi islohotlarning izchil davom ettirilishi ayollarning jamiyat va iqtisodiyotdagi rolini yanada oshirishga, shuningdek, mamlakatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi.
3. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi.
4. O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi.
5. O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 25-maydagi “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 7 martdagi “Xotin-qizlarning tadbirkorligini yo‘lga qo‘yish va rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-122-sonli qarori.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-martdagi “Oila va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-103-sonli qarori.